ZAMONAVIY TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Xolmurodova Iroda

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika fakulteti pedagogika ta’lim yo‘nalishi 2- bosqich talabasi

ANNOTATSIYA : Mazkur maqolada ta'lim tizimini isloh qilish va zamonaviy ta'limni tashkil etish orqali axborot olish va undan to’g’ri foydalanishni o‘rgatish. Asosiy maqsad esa ta'limni qulayroq, qiziqarli , interaktiv qilish, yoshlarning qiziqishlarini orttirishdir.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta'lim, ta'lim muassasalari, raqamli texnologiya, zamonaviylik

Butun dunyoda zamonaviy ta’lim tizimini tashkil etish orqali mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’limlash bugungi kundagi ahamiyatli masaladir. Yurtimizda ham keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda bunga, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo’ljallangan „Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi‘‘ to’g’risidagi farmoning Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish ustuvor bo’limini o’z ichiga olgan farmoni tasdiqlandi. Ushbu bo’limda ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyat uchun raqabotbardosh ishchi kuchi zarurligi va kadrlar malakasini oshirish ko’zda tutilgan.

O’zbekiston Respublika Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risida”gi 2019-yil 24-apreldagi qaroriga ko’ra O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unda zamonaviy ta’lim tizimida quyidagilar:

- xalq ta’limini boshqarishda strategik rejalashtirishning zamonaviy shaklllarini yaratish,innavatsion g’oyalar,ishlanmalar va texnologiyalar, sohada xalqaro tajriba-

-dan kelib chiqib ilg‘or yutuqlardan foydalanish amaliyotini kengaytirish:

-xalq ta’limi tizimini innovatsion rivojlantirishning kelajak modelini shakllantirishga, mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini ko‘tarishga yordam beruvchi uzoq muddatli ssenariy asosida strategik rejalashtirish tizimini yaratish;

-konferensiya, ko‘rgazma va boshqa tadbirlar yordamida mamlakatning xalq ta’limi sohasidagi yutuqlarini xalqaro darajada keng yoritish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash;

-xalq ta’limi boshqaruvi sohasiga ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatning zamonaviy yutuqlarini joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish;

-budjetdan tashqari manbalardan, homiylardan mablag‘lar tushishi va taqsimlanishini nazorat qilish maqsadida raqamli onlayn-platformalarni yaratish;

-zamonaviy innavatsion texnologiyalardan foydalangan holda virtual ta’lim metodlarini joriy etish;

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risida”gi 2019-yil 8-oktabrdagi qaroriga asosan Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada pedagog

kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish;

- ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish;

-ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o‘zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi “E-MINBAR” platformasini amaliyotga joriy etish, ta’lim jarayonlarida “bulutli texnologiyalar”dan foydalanish;

-masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimini keng joriy etish, talabalarning oliy ta’lim muassasasida o‘qishni tamomlaganlaridan so‘ng kutubxona fondi, axborot bazalaridan foydalanishini yo‘lga qo‘yish orqali ularning kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borish imkoniyatlarini kengaytirish;

-milliy elektron ta’lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta’lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta’lim jarayonida elektron resurslar salmog‘ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o‘quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;

-oliy ta’lim muassasasining konferensiya materiallari, bitiruv-malakaviy ishlar, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalaridan iborat ilmiy-texnik ma’lumotlar elektron bazasini yaratish, kelgusidagi ilmiy-texnik ma’lumotlar yangiligini ta’minlash maqsadida antiplagiat tizimidan foydalanishni keng joriy etish;

ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, ta’lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish;

-oliy ta’lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot va ma’lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog‘oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimi va o‘quv jarayonlari, kutubxona va hujjatlar aylanmasini elektronlashtirishni ta’minlovchi “Elektron universitet” platformasiga bosqichma-bosqich o‘tish, ta’lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilishning elektron tizimini joriy etish;

Hozirgi vaqtda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish bir tomondan muammolarga keltirib chiqarsa ham boshqa tomondan yangi yuqutlarga erishmoqdamiz. Raqamli texnologiyalar ta'lim sohasini keng va sifatli ta'limni tashkil etishda , dars mashg‘ulotlarida axborot olish tezligi va aniqligini ta'minlashda yutuqlarga erishdi. Raqamli texnologiya nima degan savolga javob beradigan bo‘lsak, raqamli texnologiya bu -raqamli ko‘rinishdagi ma’lumotlar majmuidan foydalanish, ishlab chiqib va uzatishdir.Hozirgi vaqtda ta'lim tizimi enternet tarmoqlarisiz tasavvur qilish qiyin. Ta'lim sohasidagi raqamli texnologiyalarga kompyuterlar, noutbuk ,multimedialar, smatdoskalar, proyektorlarni misol qilib keltirish mumkin bu texnologiyalar o‘quvchilarga singib ham bo‘ldi.

Ta'lim tizimida raqamli texnologiyadan foydalanishning afzalliklari juda ko‘p:

-darsliklarni, ekranlarga chiqarish

-internetdan axborot olish va undan foydalanish

-o‘quvchilar xohlagan vaqtda ,xohlagan ta'lim yo‘nalishidan bilimlarga ega bo‘lish

-vaqtni tejash va mablag‘ sarfini kamaytirish

-ta'lim jarayonida,o‘quv reja va dasturlarini ,yangi pedagogik o‘qitish usullarini kengaytirish

Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlanishida WI- FI zonali IT parklar ochilishi katta hududda internetdan foydalanishga katta xizmat qildi. Zamonaviy ta'lim dasturlarida ta'lim beruvchilar raqamli texnologiyala bilan internet orqali ochiq turli darslar ,masofaviy ta'limda, pandemiya davrida keng foydalanib barchaning sifatli ta'limni tashkil etilishida o‘z hissasini qo‘shmoqda.Bunga misol qilib pandemiya davrida yoshlarni ta'lim olishi uchun televizorlarda onlayn darslarni tashkil etilishi yoshlarni darsga bo‘lgan muhabbatini oshirish, internetdan foydalanish madaniyati shakllantirish orqali yoshlarni tarbiyalashga xizmat qildi.

Zamonaviy ta'lim bu onlayn ta'limdir .XXI asrning zamonaviy versiyasidir. Zamonaviy ta'limning rivojlanishi jamiyatning barqaror yuksalishi uchun bosqichma-bosqich ko‘tarishdir. Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar o‘quvchilarga dunyoning istalgan nuqtasidan ta'lim olish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining yutuqlari bilan birga kamchiliklari ham mavjuddir. Bunda o‘quvchilar raqamli ta'limda to‘liq ishtirok etish uchun zarur raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega emasligi, ishonchli internet ulanishlariga ega emas. Texnologiyada o‘quvchilarni darsda chalg‘itish imkoniyatiga ega ekanligi va enternet tarmog‘idan samarali foydalanishni ta'minlashdir.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak,zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llash ta'lim sohasida innovatsion g‘oyalar kiritish, ta'limda qulayroq,sifatli dars o‘tishni ta'minlashni yaratadi. Mamlakatimizda yaratilayotgan texnologiyalar individual salohiyatli yoshlarni imkoniyatlardan foydalanib, jamiyatimiz yuksalishiga o‘z hissalarini qo‘shishida ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida"gi 2019-yil 8-oktabr PF-5847 sonli qarori.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 2019-yil 29-aprelda PF-5712 sonli qarori

3.RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM SOHASIDA qo’llashga doir https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-5-2-538-545 Mirzahmedova Nargiza Dilmurodovna Nizomiy nomidagi TDPU "Axborot texnologiyalari" kafedrasi katta o'qituvchisi.